



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



CONFERENCES.UZ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7507069>

HUDUDLARNI IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHIDA SANOATNING TUTGAN O‘RNI (BOG‘DOD TUMANI MISOLIDA)

Maxsudova Diyora Abrorjonovna

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: diyoramuhammajonova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatining Bog‘dod tumaning sanoat mahsulotalari ishlab chiqarish hajmi va uning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, sanoatni hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, iqtisodiy, rivojlanish, sanoat, sanoat mahsulotlari, ishlab chiqarish, hududlar.

THE ROLE OF INDUSTRY IN THE ECONOMIC AND SOCIAL DEVELOPMENT OF THE REGIONS (ON THE EXAMPLE OF BAGHDAD DISTRICT)

Makhsudova Diyora

Annotation: This article discusses the volume and importance of industrial production in Fergana region and Baghdad district. The role of industry in the socio-economic development of the regions is also highlighted.

Keywords: social, economic, development, industry, industrial products, manufacturing, regional.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasini yaxshilash, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadlaridan biridir. Shu sababdan, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab, respublika hukumati viloyatlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy, yer-suv, agroiqlimiy, mineral-xomashyo, mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanishga katta e‘tibor qaratib kelmoqda. Bularning natijasi o‘laroq aksariyat viloyatlarning mavjud salohiyati asosida ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinmoqda.

Ma‘lumki, har qanday hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, eng avvalo, uni har tomonlama o‘rganishni, istiqbolda uning mavjud salohiyatidan oqilona foydalanish asosida xo‘jalik ixtisoslashuvini takomillashtirishni, aholi bandligini oshirishni va natijada hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yuksaltirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu ishning bosh maqsadi respublikamizning Farg‘ona viloyatida o‘zining agrar iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan alohida o‘rin tutuvchi Bog‘dod tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qayta ishlash sanoatining tutgan o‘rni va rolini ochib berishdan iborat.

Bog‘dod tumani 1926-yilning 29-sentabrida tashkil topgan. Mazkur tuman Farg‘ona viloyatining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, 333,3 km kv maydonni egallaydi. Hozirda tuman iqtisodiyotining asosini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Mazkur sanoat ishlab chiqarishi quvvatlari ham tumanda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash bilan bog‘liqdir.

Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda keyingi yillarda ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada sanoatni asosiy tarmoq sifatida rivojlantirish talab etiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yalpi hududiy mahsulotda sanoatning tutgan o‘rni ortib bormoqda.

Farg‘ona viloyatining hududlarida ham sanoat ishlab chiqarish ulushi so‘nggi 10 yillikda o‘zgarishini quydagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Jadval

Viloyat bo‘yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi (%)

T/r	Hududlar	2011	2016	2021
	Farg‘ona viloyati	100	100	100
1	Farg‘ona shahri	53,7	36,1	12,6
2	Qo‘qon shahri	8,8	13,8	15,8
3	Quvasoy shahri	10,2	8,3	1,9
4	Marg‘ilon shahri	2,4	4,9	9,1
5	Oltiariq tumani	0,6	2,2	1,6
6	Qo‘sh tepa tumani	0,7	1,4	2,9
7	Bog‘dod tumani	2,3	2,6	8,3
8	Buvayda tumani	1,8	3,1	3,6
9	Beshariq tumani	0,6	1,6	2,9
10	Quva tumani	1,3	2,2	2,7
11	Uchko‘prik tumani	2,5	3,3	17,0
12	Rishton tumani	1,7	2,6	2,2
13	So‘x tumani	0,3	1,0	0,7
14	Toshloq tumani	8,5	6,5	6,2
15	O‘zbekiston tumani	1,5	3,4	2,5
16	Farg‘ona tumani	0,8	1,8	2,2
17	Dang‘ara tumani	0,9	2,6	3,6
18	Furqat tumani	0,7	1,3	2,7

19	Yozyovon tumani	0,6	1,3	1,5
----	-----------------	-----	-----	-----

(Jadval muallif tomonidan Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzildi)

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, viloyatda hududlar kesimida sanoat mahsulotlarining ulushi Farg‘ona, Quvasoy shaharlari va Toshloq tumanining ulushi kamayib borayotganligini, aksincha, Qo‘qon, Marg‘ilon shahri, Bog‘dod va Uchko‘prik tumanlarining ulushi keskin tarzda ortib bormoqda.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi 2011-yilda 103,3% ga, 2016-yilda 106,5% ga va 2021-yilda esa 108,8% ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda o‘shish kuzatilayotgan bo‘lsa-da, respublikadagi sanoat hajmida viloyat ulushi kamayib bormoqda. 2011-yilda respublikada yalpi sanoat mahsulotlarining 8,7% ni, 2016-yilda esa 7,2% ni va 2021-yilda esa 6,2% ni tashkil qilib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda viloyat ulushi kamayib bormoqda.

Bog‘dod qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i paxtachilikdir. Bu yerda paxta tozalash zavodi, don mahsulotlari kombinati va qurilish materiallari, mahalliy sanoatda mebel va poyabzal fabrikalari, avtobaza bor. Xo‘jaliklarda chorvachilik, bog‘dorchilik, pillachilik, polizchilik, sabzavotchilik bilan ham shug‘ullanadi. Tumanda 1 ta qo‘shma korxonalar, 134 ta kichik korxonalar va 1 ta kooperativ korxonalar mavjud.

Bog‘dod tumanida keyingi yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi muntazam ravishda ortib bormoqda. Tumanda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi 2011-yil 2,3% dan, 2021-yil 8,3% ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Sanoatning, asosan, oziq-ovqat, yengil va iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Shuningdek, tumanda agrosanoat tarmoqlari ham jadal taraqqiy etayotganligini qayd qilish kerak. Tumanda 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 109,1% ga o‘sdi, ayni davrda viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 108,6 foizga o‘sgan. 2021-yil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1068,6 mlrd so‘mni tashkil qilgan holda viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini 4,1 foizini yetkazib berdi.

Viloyat miqyosida Bog‘dod tumani mebel ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi hisoblanib, viloyatda ishlab chiqarilayotgan mebellarning 42,5% tuman hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining 10,5% ini, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda esa 12,6% ni tashkil qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida sanoatni o‘rni yuqori ekanligini aytib o‘tish joiz. Bag‘dod tumani hozirgi kunda respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha na‘munali tuman sifatida e‘tirof etilmoqda. Sanoatni rivojlanishida tadbirkorlarni

ulushi yuqori bo‘lib, tumanda tayyorlanayotgan sanoat maxsulotlarining 93,0% kichik biznes va xususiy tadbirkorlar hissasiga to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bog‘dod tumanida sanoatni yanada rivojlantirish uchun sanoat tarmoqlari ko‘lamini kengaytirish talab etiladi. Hozirgi kunda tumanda, asosan, agrosanoat tarmoqlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qayta ishlash, oziq-ovqat, yengil sanoat yaxshi rivojlangan, xolos. Kelgusida ishlab chiqarishda va xalq xo‘jaligida zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari tumanda ishlab chiqarish orqali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishi ayni paytda aholi bandligini ta‘minlashda va ularning daromadlarini ortishiga ham muhim ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Sanoat ishlab chiqarishda uning zamonaviy tarmoqlarini hosil qilishda va mavjudlarini modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor qilish lozim. [2]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, Toshkent, 2017-yil, 7-fevral.

2. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Toshkent. Mumtoz so‘z. 2010-y. 196 b.

3. Tashtayeva S.K., Qosimov X.S. “Farg‘ona mintaqasi turistik koridori shaharlarining rivojlanish imkoniyatlari // Zamonaviy geografik tatqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Nukus sh., 2021-yil 26–27-oktabr) 113-116 betlar.